



UO‘K: 376.04

**Aziza HUSENOVA**

*Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD*

*E-mail: aziza\_husenova@buxdpi.uz*

*BuxDU professori, p.f.d A.Hamroyev taqrizi asosida*

### BLUM TAKSONOMIYASI- BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUV MATERIALLARINI O‘ZLASHTIRISHNING MUHIM VOSITASI SIFATIDA

Аннотация

Ushbu maqolada Bloom taksonomiyasining boshlang‘ich sinf o‘quv materiallarini samarali o‘zlashtirishdagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Bloom taksonomiyasining uch asosiy domeni – kognitiv, affektiv va psixomotor yo‘nalishlari o‘quvchilarning bilim olish, hissiy-irodaviy rivojlanish hamda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonida muhim nazariy-metodik asos bo‘lib xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslanadi. Xususan, kognitiv domen o‘quvchilarning bilimlarni eslab qolishdan boshlab ularni tahlil qilish va ijodiy qo‘llash darajasigacha olib chiqishini ta‘minlasa, affektiv domen ularning kitobxonlikka bo‘lgan qiziqishi, qadriyat va munosabatlarini shakllantirishga xizmat qiladi, psixomotor domen esa o‘qilgan materialni yozma va og‘zaki faoliyat bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, Bloom taksonomiyasi asosida darslarni tashkil etishning ilmiy-metodik yondashuvlari hamda pedagogik amaliyotda qo‘llashning afzalliklari ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Blum taksonomiyasi, boshlang‘ich ta‘lim, o‘qish savodxonligi, adabiy asar tahlili, mustaqil fikrlash, tahlil va baholash, ijodiy yondashuv.

### ТАКСОНОМИЯ БЛЮМА-КАК ВАЖНОЕ СРЕДСТВО УСВОЕНИЯ УЧЕБНОГО МАТЕРИАЛА НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Аннотация

В этой статье анализируется роль и значение таксономии Блума в эффективном усвоении учебного материала начальной школы. Научно обосновано, что три основные области таксономии Блума – когнитивная, аффективная и психомоторная – служат важной теоретико-методической основой в процессе приобретения учащимися знаний, эмоционально-волевого развития, формирования практических навыков. В частности, в то время как когнитивная область позволяет учащимся запоминать знания от их запоминания до анализа и творческого применения, аффективная область служит для формирования их интереса, ценностей и отношения к чтению, в то время как психомоторная область позволяет согласовывать прочитанный материал с письменной и устной деятельностью. В статье раскрыты научно-методические подходы к организации уроков на основе таксономии Блума с учетом возрастных и психологических особенностей младших школьников, а также преимущества их применения в педагогической практике.

**Ключевые слова:** Таксономия Блума, начальное образование, грамотность чтения, анализ литературного произведения, самостоятельное мышление, анализ и оценка, творческий подход.

### BLUM TAXONOMY-AS AN IMPORTANT TOOL FOR MASTERING ELEMENTARY SCHOOL TEACHING MATERIALS

Annotation

This article analyzes the role and significance of Bloom's taxonomy in the effective appropriation of elementary-grade teaching materials. The three main domains of Bloom taxonomy – Cognitive, Affective, and psychomotor-are scientifically substantiated by the fact that students serve as an important theoretical-methodological basis in the process of acquiring knowledge, emotional-volitional development, and the formation of practical skills. In particular, while the cognitive domain ensures that students bring knowledge from recall to the level of their analysis and creative application, the affective domain serves to shape their interest, value and attitudes towards reading, while the psychomotor domain allows the read material to be harmonized with written and oral activities. Taking into account the age and psychological characteristics of elementary students, the article reveals the scientific and methodological approaches to organizing classes on the basis of the bloom taxonomy, as well as the advantages of their application in pedagogical practice.

**Key words:** Blum taxonomy, primary education, reading literacy, literary work analysis, independent thinking, analysis and evaluation, creative approach.

**Kirish.** So‘nggi yillarda ta‘lim-tarbiya samaradorligini oshirishga qaratilgan modernizatsiya jarayonlari puxta bilim berish va o‘zlashtirishni kafolatlovchi yondashuv sifatida baholanmoqda. O‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish dolzarb ijtimoiy-ta‘limiy zarurat ekanligi ko‘zda tutilsa, “O‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta‘lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, xalq ta‘limi sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni

joriy etish” vazifalari ta‘lim xodimlari zimmasidagi mas‘uliyatni yanada oshiradi. Bu esa milliy va xorijiy tajribalarni uyg‘unligiga asoslangan zamonaviy yondashuvlarni taqozo etadi. Ma‘lumki, buyuk ajdodlarimizning dunyo tamaddunidagi zalvorli o‘rni zamirida, shubhasiz, o‘tmish madrasa-maktablaridagi ibratli tajribalar yotadi. Xususan, so‘nggi paytlarda dunyoda ta‘limni rivojlantirish omili sifatida e‘tirof etilayotgan “Case-study” (inglizcha) cha “case” - voqea, hodisa; “study” – o‘rganmoq

texnologiyasi tarixiga nazar solinsa, u dastlab ko'hna Sharq, keyinchalik G'arb mamlakatlari ta'lim tizimida ommalashgani oydinlashadi.

**Tahlil va natijalar.** Axborotlashgan asr yoshlarining dunyoqarashi, tafakkur tarzi va qiziqishlari milliy hamda global ta'lim tendensiyalariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ta'lim jarayonida milliy tajribaga asoslangan yondashuvlar bilan bir qatorda jahon miqyosida samarali qo'llanilayotgan konstruktivizm (J. Dyui), bolaning intellektual rivojlanishi (J. Piaje), intellektning ko'p turliligi (H. Gardner), eng yaqin rivojlanish zonasini (L.S. Vygotskiy), shaxsga yo'naltirilgan ta'lim (D. D. Nolt) kabi nazariyalar ta'limni takomillashtirishning muhim asoslarini belgilab bermoqda. Mazkur nazariyalar o'quvchilarning erkin fikrlashini, bahs-munozaralarda faol ishtirok etishini, sog'lom raqobat muhitida mustaqil qarorlar qabul qilishini va tafakkurni rivojlantirishni ko'zda tutadi. Shaxs bilish jarayonlari va individual xususiyatlarini rivojlantirishda Chikago universiteti professori Benjamin Blum tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik maqsadlar taksonomiyasi alohida o'rin tutadi. "Taksonomiya" atamasi dastlab shved botanigi O. Dekandol tomonidan 1813-yilda ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, u tasniflash, tizimlashtirish va tartibga solish tamoyillarini ifodalagan. Keyinchalik ushbu tushuncha pedagogika faniga tatbiq etilib, Blum va uning hamkasblari tomonidan o'quv maqsadlarini tizimlashtirishda qo'llanildi.

Blum taksonomiyasi, boshqa mualliflarning tasnif tizimlaridan farqli ravishda, aniq metodik asoslanganligi va puxta ishlab chiqilgani bilan ahamiyatlidir. Unda o'quv maqsadlari kognitiv (bilish), affektiv (hissiy-qadriyatli) va psixomotor (amaliy-harakatli) sohalarga ajratilgan bo'lib, har bir soha o'ziga xos bosqichli tartibda izchil shakllantirishni ko'zda tutadi. Shu bois, boshlang'ich sinf o'quv materiallarini o'zlashtirish jarayonida taksonomiya asosida tashkil etilgan ta'lim nafaqat bilimlarni egallash, balki ularni bosqichma-bosqich umumlashtirish, qo'llash, tahlil qilish va ijodiy yondashuvlarni shakllantirish imkonini beradi. Pedagog olim J. Yo'ldoshev ta'kidlaganidek, taksonomiya — "borliqning murakkab sohalarni tasniflash va sistemalashtirish nazariyasi"dir. Demak, boshlang'ich sinflarda ta'lim jarayonini Blum taksonomiyasi asosida tashkil etish o'quvchilarning bilish faoliyatini soddadan murakkabga qarab rivojlantirish, mustahkam nazariy asos yaratish va o'zlashtirish darajalarini izchil tizimlashtirish imkonini beradi. Shuningdek, metodist olimlar Q. Husanboyeva va R. Niyozmetovalar matn ustida ishlash yo'llarini Blum taksonomiyasi mezonlari asosida tashkil etishning samarali usullarini ishlab chiqqanliklari bilan e'tiborga loyiqdir.

Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darsligida keltirilgan Abdulla Qahorning "O'tmishdan ertaklar" asarini Blum taksonomiyasi bosqichlari (Eslab qolish – Tushunish – Qo'llash – Tahlil – Baholash – Yaratish) asosida tahlil qilib chiqsak.

#### O'tmishdan ertaklar

Abdulla Qahor

Biz Oqqo'rg'ondagi xiyla katta, o'rtasida chog'roq gulzori bor hovliga ko'chib keldik.

Bir kuni dadam:

— Katta masjidida qo'qonlik Muhammad qori "usuli jadid" degan yangi maktab ochgan emish, uch oyda bolani xat-savodli qilarmish, — degan gap topib keldi.

Dadam ertasiga ertalab meni katta masjidga boshlab bordi. Masjid ichkarisidan to'ladan kelgan bir kishi yugurib chiqdi va dadam bilan so'rashgandan so'ng menga qo'l berdi. Shu choqqacha hech kim men bilan qo'l berib so'rashmagan edi. Muhammad qori domla shu ekan.

Maktabda bolalar past-baland qoqilgan sakkiz qator taxta partada kitob o'qib, xat yozib o'tirishar edi. Domla meni

gapga soldi. Dadam o'qib bergan kitoblarning nomini aytib berdim. Domla nonxo'rak oldida meni bolalarga tanitib:

— Zehni o'tkir bola, maktab ko'rmasdan xat tanibdi, o'rtoq bo'linglar, — dedi.

So'ng:

— Tiling salgina chuchuk ekan, mayli, tural aytib yursang burro bo'lib ketadi. Qani ayt-chi: "Tutning tomirini turp tutib turipti, turpning tomirini tut tutib turipti!" — dedi.

Men bu turalni dabdurustdan ayto'lmadim. Ertasiga turalni domlaga sharros aytib berdim.

Undan keyin "Ustodi avval" degan kitobdan o'qish va xat mashq qilish uchun saboq oldim. Ikki oy o'tar-o'tmas "Gulshan dilafgor", "Bolalar bog'chasi" singari kitoblarni o'qiydigan, maktab va turli hujjatlar nusxasini chiroyli qilib ko'chiradigan bo'ldim.

Kuzning boshida dadam meni "Urfon" degan yangi maktabga berdi. Bu maktabda bir oycha o'qidim. Keyinchalik Farg'ona ta'lim-tarbiya bilim yurtida o'qishni davom ettirdim.

Shunday qilib, mening bolalik va o'quvchilik yillarim Farg'onaning Yaypan, Nursuq, Qudash, Buvayda, Toliq, Olqor, Yulg'unzor, Oqqo'rg'on degan qishloqlarida o'tgan.

Blum taksonomiyasi asosida "o'tmishdan ertaklar" asarining tahlili:

Eslab qolish darajasi

Bu bosqich o'quvchilarning matn mazmunini eslab qolish, qahramonlarni sanab berish va voqealar ketma-ketligini qayta aytishiga qaratiladi.

Savol-topshiriqlar:

Asarda qaysi qishloqlar nomi tilga olingan?

Abdulla Qahorning otasi uni qayerdagi maktabga olib borgan?

Muhammad qori domla qaysi maktabni ochgan edi?

Abdulla Qahor dastlab qaysi kitoblardan saboq olgan?

Tushunish darajasi

O'quvchi matn mazmunini anglab, voqealar sababini tushuntira oladi. Savol-topshiriqlar:

Nega Muhammad qori domla bolalarni tez xat-savodli qilishi mumkin edi?

Domla nima uchun Abdulla Qahorni "zehni o'tkir bola" deb ta'rifladi?

Nega domla bolaga tural (til mashqi) aytirdi?

Asardan qanday xulosa chiqarish mumkin?

Qo'llash darajasi

Bu bosqichda o'quvchi o'z hayotiy tajribasini asar mazmuni bilan bog'laydi.

Savol-topshiriqlar:

Agar sen Abdulla Qahor o'rinda bo'lganingda, turalni qanday tez o'rganishga harakat qilgan bo'larding?

Hozirgi maktab hayoti bilan asardagi maktab hayotini qiyosla. Qanday farqlarni ko'ryapsan?

Sen ham xat-savod o'rganishda qiyin bo'lgan biror mashqni eslab bera olasanmi?

Tahlil darajasi

O'quvchi asarni qismlarga ajratadi, asosiy g'oyani aniqlaydi, qahramon xarakterini tushunadi.

Savol-topshiriqlar:

Asarni qismlarga ajratib, ularning har biriga sarlavha qo'y.

Muhammad qori domlaning o'qituvchilik uslubida qanday xususiyatlarni ko'rding?

Abdulla Qahorning bilimiga bo'lgan qiziqishini qaysi voqealar orqali anglash mumkin?

Baholash darajasi

Bu bosqich o'quvchining mustaqil fikr bildirishini talab qiladi.

Savol-topshiriqlar:

Sen Abdulla Qahorning o'quvchilik hayotiga qanday baho berasan?

Asardagi qaysi voqea senga eng yoqqan, qaysi biri unchalik yoqmagani? Nima uchun?

Muhammad qori domlaniq metodini zamonaviy o'qituvchilar uslubi bilan solishtirib bahola.

Yaratish darajasi

O'quvchi o'z ijodiy faoliyatini namoyon qiladi, asardan yangi mahsulot yaratadi. Topshiriqlar:

Asarni sahnalashtirish uchun kichik ssenariy yoz.

"Men ham yangi maktabga borgan kunim" mavzusida insho yoz.

Asarda uchragan qahramonlardan biri haqida she'r yoki kichik hikoya yarat.

O'zing ixtiro qilgan yangi tural (til mashqi) tuzib, uni sinfdoshlaringga ayttir.

**Xulosa.** Adabiy asarlarni boshlang'ich ta'lim jarayonida Blum taksonomiyasi mezonlari asosida o'rganish o'quvchilarda o'qish savodxonligini shakllantirishda, mustaqil fikrlash, tahlil qilish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Xususan, Abdulla Qahhorning "O'tmishdan ertaklar" asarini turli bosqichlarda tahlil qilish o'quvchilarni voqealarni eslab qolish, mazmuni anglash, real hayot bilan bog'lash, qahramonlar xarakterini tahlil qilish, muallif mahoratini baholash hamda ijodiy ishlarga jalb etish imkonini beradi. Shu bois, bunday metodik yondashuv nafaqat adabiy matnlarni samarali o'qitishga, balki boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkuri, dunyoqarashi va ijodiy salohiyatini kengaytirishga xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. "O'zbekiston Respublikasida xalq ta'limini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmon. – Xalq so'zi, 2019-yil 30-aprel.
2. Xaitova N. Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarini tashkil etish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2017. – 130 b.
3. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: Sharq, 2010. – 167 b.
4. Xusanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 211-219 b.
5. Xolboyeva G. Adabiyot darslarida Blum taksonomiyasini qo'llash samarasi. – Til va adabiyot ta'limi, 2019. – №1. – 31–33 b.
6. Mirzayeva Z. O'quvchilarning ehtiyojini hisobga olish adabiy ta'lim taraqqiyotining muhim faktori sifatida. – Xalq ta'limi, 2019. – №4. – 20–22 b.
7. Niyozov J., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008. – 202 b.
8. Wikipedia. Blum taksonomiyasi. – <https://ru.wikipedia.org/wiki>.